

Axmadov Dovudxon Xabibulloyevich

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

+998915226226

dovudxon.axmadov.xon@gmail.com

Ma'lumki tarixning har qaysi bosqichida jamiyat hayotining moddiy asosini belgilovchi omil sifatida iqtisodiy xo'jalik munosabatlari katta ahamiyatga ega bo'lgan. Sug'd jamiyatining tadqiq etilayotgan davridagi iqtisodiy, xo'jalik munosabatlari ham bevosita Sug'd konfederativ davlati hayotining asosini tashkil etgan. Sug'd davri hujjatlarida shu davrning iqtisodiy hayotida charmgarlik muhim o'rin egallaganligini ko'rishimiz mumkin.

Sug'd xo'jaligiga oid Mug' hujjatlari orasida bir turkum charm tayyorlash va uning saroy omboriga topshirilishi haqida yozilgan tilxatlar mavjud bo'lib, uning nashrlari asosan M.N.Bogolyubov, O.I.Smirnovalar tomonidan amalga oshirilgan. Charm haqidagi hujjatlarning ko'pida (A-4, A-8, A-7, A-10, V-3, V-5) saroy omboriga topshirilgan charm va uning turlari to'g'risida yozilgan. Masalan, Govcharm (mol charmi), g'irocharm (eshak charmi) kabilar. Oshlanmagan teri esa *po'stak* deb ataladi¹.

Charmgarlik sohasiga tegishli mavjud barcha hujjatlarda «Vgashmarik» ismi uchraydi. V-3 hujjatidagi jumlaning V.A.Livshis «Matrushskomu nachalniku vodoyema Vgashmariku», deb izohlagan. Bu yerda V.A.Livshis «nachalnik vodoyema» iborasida teri oshlash jarayonida kerak bo'ladigan suv havzasi haqida gap borsa kerak, deb hisoblaydi². Mazkur hujjatlar asosida Sug'd jamiyati iqtisodiy hayotida charmgarlik alohida o'rin egallaganligini ko'rish mumkin. Jumladan, Mug' hujjatlarining bir qismi teriga bitilganligi ham buning yorqin dalilidir. Shuningdek, teriga bitilgan matnlarning egalari obro'-e'tiborli kishilar bo'lishi, teri

¹ Исхоқов М.М. Суғдиёна тарих чорраҳасида... – Б. 24.

² СДГМ II... – С. 71-72.

mahsulotlariga alohida e'tibor berilganligi va maxsus saroy ishlariga tegishli bo'lganligi alohida diqqatga sazovardir. Bunday xulosa chiqarishga saroy oliy nasab kishilariga atalgan teridan ishlangan kiyim-kechaklar borasida tuzilgan hisobot haqidagi hujjat asos bo'la oladi³.

Vgashmarik terini qayta ishlab Panjikent saroy omborxonasining boshlig'i framandar Uttga jo'natib turgan. Teri oshlanmagan holda Martushkatga keltirilgan. Bu yerda esa uni qayta ishlab saroy omborxonasiga jo'natilgan. V.A.Livshis V-3 hujjatining 4-5-qatoriga quyidagicha izoh beradi: «Ot framandara Utt-skomu nachalniku vodoyoma Vgashmariku». Keyingi qatorlarda: «I poluchil ot tebya, Vgashmarik, Martishskogo nachalnika vodoyoma, koj otbornix, i chetire koji gornogo kozla, i iz nix odna svetnaya koja, a tri nevidelanniye (skruchenniye) shkuri, i trinadsat lisix shkur». V.A.Livshis mazkur qatorlardagi qayta ishlangan terining sifat darajasi, xolatining turlicha ekanligiga e'tibor qaratib, bu ishlab chiqaruvchi tarmoq kattagina hajmda ishlab chiqarish bilan shug'ullangan, degan xulosa berib o'tgan.

Mug' hujjatlaridan birida (Nov.1 hujjati) teridan ishlangan turli mahsulotlar haqida ma'lumot beriladi: qo'zi va qo'y terisidan yopqich va plash tayyorlangan. Devashtichning xazinasiga charm yetkazib beradigan teriga ishlov beruvchi ustaxonalar Zarafshonning yuqori oqimidagi Martushkat atrofida joylashgan edi. Framandarning ikkita yozishmasi saqlangan bo'lib, ulardan birida unga qo'l qo'ygan shaxs qandaydir bir Vgashmarik Martushkat hisobchisidan bitta bo'yalgan va ikkita tulki terisi olganligi haqida yozilgan⁴. Boshqa bir yozishmada (B-5 hujjati) ishlov berilgan qo'y terisi Devashtichning xazinachisidan olinganligi haqida yozilgan. Ma'lumki, keyinchalik terining katta qismi ko'chmanchi turklardan o'troq rayonlarga kelib turgan. Turklar terini ishlov berilmagan holda olib kelar, keyin esa joylarda ular o'troq aholi tomonidan qayta ishlanar edi. Shuningdek, ushbu hududlar aholisi davlatga teri ko'rinishida soliq to'lagan⁵.

³ СДГМ III... – С. 87.

⁴ СДГМ II... – С. 71; СДГМ III. – С. 62.

⁵ Бобокулова Б. Документы связанные с кожевенным делом в Согде // *Ўзбекистон тарихи*. – 1999. – №2. –Б. 43.

Zarafshon qishloqlaridan biri hisoblangan, tog'li rayonda joylashgan Martushkat ko'chmanchi chorvadorlarga yaqin joylashgani sababli, bu yerda teriga ishlov berish yaxshi rivojlangan. Georafnlarning ma'lumotlariga qaraganda, Shoshda ham huddi shunday teriga ishlov beruvchi ustaxonalar mavjud bo'lgan⁶.

Teriga ishlov beruvchilarning barcha mahsulotlari davlat xazinasiga kelib tushgan. Devashtichning o'zi terilarning kirim va chiqimini nazorat qilgan. Xo'jalikka oid barcha yozishmalar ikki, uch nusxada tuzilgan: Devashtichga, framandar Uttga, Vgashmarikka, ya'ni qat'iy hisob-kitob amal qilgan⁷. Vgashmarik, framandar qo'l ostida hamda podsho saroyida teri saqlash uchun mo'ljallangan omborxonlar ham mavjud bo'lgan. Arxiv tarkibidagi A-7 raqamli hujjatda shu jarayon bilan bog'liq ma'lumot saqlangan : «I poluchil ya u tebya shest koj iz chisla koj xoroshey soxrannosti»⁸.

Shu alohida ta'kidlash kerakki, framandar terilarning hisob-kitobida nafaqat o'z xo'jaligi haqida, balki uning qul ostidagilarga qancha teri kelib tushganligi haqidagi ma'lumotga ham ega bo'lgan⁹.

Hujjatlarda keltirilgan ma'lumotlar orqali biz ilk o'rta asrlarda Sug'd konfederatsiyasida charmgarlik haqida ma'lumotlarga ega bo'lamiz va oz bo'lsada Sug'd iqtisodi va xo'jaligi haqida tasavvur qilishimiz mumkin.

1. Исҳоқов М.М. Суғдиёна тарих чорраҳасида
2. Смирнова О.И. Очерки из истории Согда...
3. Бобокулова Б. Документы связанные с кожевненным делом...

⁶ Смирнова О.И. Очерки из истории Согда... – С. 113-123.

⁷ Бобокулова Б. Документы связанные с кожевненным делом... – Б. 43-44.

⁸ СДГМ II... – С. 74.

⁹ Бобокулова Б. Документы связанные с кожевненным делом... – Б. 45.